

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida tahsil olayotgan hamda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo'yicha 2022-yilning yanvar hamda fevral oyida hujjat topshirgan talabgorlarni tanlab olish komissiyasining yig'ilish

B A Y O N N O M A S I № 04

14.02.2022 yil

Termiz sh.

Yig'ilish raisi:

A. Rahmonov - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, **komissiya raisi**

Qatnashdilar:

Yo.Kenjayev - Davolash fakulteti dekani, **komissiya a'zosi**;

G. Turdiqulova – Bosh auditor, **komissiya a'zosi**;

Z. Qurbonova – Filial xotin-qizlar maslahat Kengashi raisi, **komissiya a'zosi**;

O. Bo'riyev - Filial buxgalteriya mas'ul xodimi, **komissiya a'zosi**;

X.Berdiyev – Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim mas'ul xodimi, **komissiya a'zosi**;

A.Sharipov - Davolash fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari, **komissiya kotibi**;

S. Boboyorov - Filial Yoshlar yetakchisi, **komissiya a'zosi**;

Tegishliligi bo'yicha tyutorlar.

KUN TARTIBI:

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida tahsil olayotgan hamda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo'yicha 2022-yilning fevral oyida hujjat topshirgan talabgorlarni tanlab olish;

2. Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida tahsil olayotgan hamda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo'yicha 2022-yilning yanvar oyida hujjat topshirgan talabgorlarni tanlab olish.

Yig'ilishni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, komissiya raisi A.Rahmonov ochib, kun tartibidagi masala Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida tahsil olayotgan hamda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish bo'yicha komissiya a'zolarining kamida uchdan ikki qatnashayotganligi, shuningdek, dekaning masalaga mas'ul o'rinbosari, tyutor, xotin-qizlar kengashi raisi, yoshlar yetakchisi majlisda ishtirok etayotganini ta'kidlab o'tdi.

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim mas'ul xodimi X.Berdiyev filialning ijara huquqi asosida yashayotgan talabalari tomonidan oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish yuzasidan ariza bilan 8 nafar talaba murojaat etganligini va taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar mavjudligi to'g'risida xabarlar kelib tushmaganligini aytdi.

So'ngra talabalarning tegishliligi bo'yicha tyutorlar so'z olib, talabalarning ijara shartnomasida ko'rsatilgan manzil borib o'rganilganligi va haqiqatdan ham shu manzilda yashashini, ijarada yashayotgan manzil ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli emasligini ta'kidlab o'tishdi.

X.Berdiyev komissiya ixtiyoriga 8 nafar ariza yozgan talabalarning hujjatlar to'plamini ko'rib chiqish uchun taqdim qildi. Talabalarning barchasi arizani 01.02.2022 yilda yozganini ta'kidlab o'tdi.

T/R	F.I.SH.	Ijtimoiy mezon
1	Ziyodullayeva Zarnigor Xolmo'min qizi	11
2	Qalandarov Muhammadsaid Aynullozoda	11
3	Anvarov Shaxzod Baxtiyor o'g'li	11
4	Dovudova Sitara Ulug'bekovna	11
5	Usmonova Anora Azimovna	11
6	Ibragimov Tojiddin Begmamat o'g'li	10
7	Nurullayev Shohjahon Jamoliddin o'g'li	1
8	Ibodullayev Imomali Abrorjon o'g'li	10

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, komissiya raisi A.Rahmonov hamda komissiya a'zolari bir ovozdan filialning ijara huquqi asosida yashayotgan talabalari tomonidan oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish yuzasidan ariza bilan murojaat etgan 8 nafar talabalarning ijtimoiy ahvoli Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrda"gi "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 605-son qarorining ilovasida keltirilgan "Davlat oliy ta'lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi davlat budjetidan qoplab berish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan ijtimoiy mezonlarga muvofiq ekanligini ta'kidladi.

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'limiga ariza bilan murojaat etib, Nizomda ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etgan 8 nafar talabalarga fevral oyining ariza bergan sanasidan boshlab oylik ijara to'lovining 50 foizini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan (bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmagan holda) qoplab berish bo'yicha masala komissiyaga ovozga qo'yildi:

Yoqlab ovoz berganlar – 100%

Qarshi chiqqanlar – 0%

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, komissiya raisi A.Rahmonov kun tartibiga qo'yilgan ikkinchi masalaga to'xtalib, TTA Termiz filialida tahsil olayotgan hamda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo'yicha 2022-yilning yanvar oyi uchun hujjat topshirgan talabalar mavjud ekanligini, lekin yanvar oyida karantin choralari sifatida o'qishni onlayn tarzida o'tishga o'tilganligi munosabati bilan ijarada yashaydigan talabalar o'z uylarida turib o'qishgani haqida so'z yuritdi. Shu munosabat bilan komissiya a'zolari ularga ijara pulini qoplab berishni yanvar oyi uchun amalga oshirish bo'yicha masalada tegishli yuqori turuvchi davlat idoralaridan ko'rsatma olish maqsadga muvofiq bo'lishi haqida fikr bildirdi. Barcha bir ovozdan ko'rsatma xat asosida yanvar oyi uchun ijara pulini qoplab berish masalasini hal qilish bo'yicha bitta fikrga keldi.

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim mas'ul xodimi X.Berdiyev filialning ijara huquqi asosida yashayotgan talabalari tomonidan oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish yuzasidan yanvar oyi uchun ariza bilan 25 nafar talaba murojaat etganligini va taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar mavjudligi to'g'risida xabarlar kelib tushmaganligini aytdi.

So'ngra talabalarining tegishliligi bo'yicha tyutorlar so'z olib, talabalarining ijara shartnomasida ko'rsatilgan manzil borib o'rganilganligi va haqiqatdan ham shu manzilda yashashini, ijara yashayotgan manzil ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli emasligini ta'kidlab o'tishdi.

X.Berdiyev komissiya ixtiyoriga 25 nafar ariza yozgan talabalarining hujjatlar to'plamini ko'rib chiqish uchun taqdim qildi. Talabalarining barchasi arizani yanvar oyining boshiga qadar yozganini ta'kidlab o'tdi.

T/R	F.I.SH.	Ijtimoiy mezon
1	Pardayeva Dilafuro'z Muso qizi	11
2	Istatullayev Javohir Muzaffarovich	10
3	Yo'ldoshev Behro'zbek Anvar o'g'li	11
4	Aminova Moxinur Normurod qizi	11
5	Raupov Asadbek Yoqub o'g'li	11
6	Qoraxonov Husan Abdunazar o'g'li	10
7	Yo'ldoshev Shoxruxbek Anvar o'g'li	11
8	Sobirov Islom Alisherovich	11
9	Olimov Javlon Sobirjon o'g'li	1
10	Qarshiboyev Arslonbek Kamol o'g'li	3
11	Suyunova Shaxnoza Muzaffar qizi	1
12	Soatov Ibrohim Bahrom o'g'li	11
13	Aktamov Hotam Axat o'g'li	10
14	Abduraxmonova Mahliyo Shavkat qizi	10
15	Nurmamatov Muxiddin Baxrom o'g'li	8
16	Choriyev Ollomurod To'ra o'g'li	11
17	Xushvaqtov Abror Asqar o'g'li	11
18	Maxmudxonov Erkin To'lqin o'g'li	8
19	Mamadiyeva Dildora Jumma qizi	11
20	Allaberdiyev San'at Yo'ldosh o'g'li	10
21	Xusanov Otamurod Sami o'g'li	11
22	Sherdilov Oybek Lazizjon o'g'li	8
23	Abdirasulova Zebiniso Otabek qizi	10
24	Sherqobilov Jasur Sharofiddinovich	10
25	Bo'riyeva Shaxnoza Shamsiddin qizi	12

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, komissiya raisi A.Rahmonov hamda komissiya a'zolari bir ovozdan filialning ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish yuzasidan ariza bilan murojaat etgan 25 nafar talabalarining ijtimoiy ahvoli Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrda"gi "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 605-son qarorining ilovasida keltirilgan "Davlat oliy ta'lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetidan qoplab berish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan ijtimoiy mezonlarga muvofiq ekanligini ta'kidladi.

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'limiga ariza bilan murojaat etib, Nizomda ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etgan 25 nafar talabalarga fevral oyidan boshlab oylik ijara to'lovining 50 foizini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan (bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmagan holda) qoplab berish bo'yicha masala komissiyaga ovozga qo'yildi:

Yoqlab ovoz berganlar – 100%

Qarshi chiqqanlar – 0%

Komissiya yig'ilishi yuqoridagi fikr va mulohazalarni inobatga olib

QAROR QILADI:

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida tahsil olayotgan hamda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo'yicha 2022-yilning yanvar va fevral oyida hujjat topshirgan talabgorlarni tanlab olish yig'ilishida so'zga chiqqan ma'ruzachilarning fikr-mulohazalari, bergan ma'lumot va axborotlari hamda taklif va tavsiyalari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin;

2. Komissiya yig'ilishining bayonnomasi asosida Talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'limiga ariza bilan murojaat etib, Nizomda ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etgan 8 nafar talabalarga fevral oyining ariza bergan sanasidan boshlab hamda yanvar oyi uchun ariza bergan 25 nafar talabalarga fevral oyidan boshlab oylik ijara to'lovining 50 foizini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan (bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmagan holda) qoplab berish bo'yicha komissiya xulosasi bir kun muddatda filial direktorining tegishli buyrug'ini rasmiylashtirib, arizalari qanoatlantirilgan Talabgorlar to'g'risidagi tegishli ma'lumotlar va ularning ro'yxati to'lovlarni amalga oshirish uchun buxgalteriyaga taqdim etilsin;

3. Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida tahsil olayotgan hamda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo'yicha 2022-yilning yanvar oyi uchun hujjat topshirgan talabgorlarni yanvar oyi uchun ijara pulini qoplash masalasini yuqori turuvchi tashkilotdan to'lab berish masalasi bo'yicha ko'rsatma xat olinsin;

4. "Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari **A.Rahmonov** zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya raisi:



A.Rahmonov

Kotib:

A. Sharipov



Komissiya a'zolari:



Yo. Kenjayev



X. Berdiyev



G. Turdiqulova



O. Bo'riyev



Z. Qurbonova



S. Boboyorov



M. Qurbonov



O. Xudoyqulov



Q. Imomaliyev




M. Haydarqulova



Z. Berdiyeva



A. G'oziyeva



P. Qilichev



A. To'raqulov



O. Zokirov



M. Mulkamanov